

**FIZIKA FANIDAN ELEKTRON VOSITALAR ASOSIDA DARSLARNI
TASHKIL ETISH TEXNOLOGIYASI AFZALLIKLARI**

Shukurova Ra'no Abduvayevna

Piskent tumani 40- umumiy o'rta ta'lim maktabi

Fizika va astronomiya fani o'qituvchisi

Annotatsiya: Maqolada fizika fanidan elektron vositalar asosida darslarni tashkil etish texnologiyasi afzalliklari to'g'risida ma'lumotlar keltirilgan.

Kalit so'zlar: axborot kommunikatsiya, elektron taqdimot, kompyuter, proyektor.

O'qituvchilarimiz axborot texnologiyalari asrida ta'lim jarayoniga yangi axborot-kommunikatsiya va pedagogik texnologiyalarni, elektron darsliklarni hamda multimedia vositalarini keng joriy etmasdan ta'limning sifat va samaradorligiga erisha olmaydi. Shuning uchun zamondan orqada qolmayin degan har bir pedagog axborot kommunikatsiya texnologiyalaridan yaxshi xabardor bo'lishi lozim.

Hozirgi tez o'zgarayotgan dunyoda yoshlarimizni hayotga tayyorlashda ularni shaxsiy va jamoa oldiga kutilmaganda qo'yilgan muammolarning maqbul yechimini topa oladigan, mustaqil ravishda zaruriy axborotlarni izlab topadigan va ulardan tahlil asosida zaruriylarini ajratib oladigan, barcha bilan muloqatga kirisha oladigan, ta'lim muassasida olgan bilimlarini hayotiy ehtiyojlarida qo'llay oladigan xususiyatlarga ega holda tarbiyalash zarur bo'ladi. Bunday ishni maktabda amalga oshirilmasa keyinchalik mazkur xususiyatlarini shakllantirib bo'lmaydi.

Fizika murakkab fan bo'lib, qonun va formulalarni aniq o'zlashtirishni talab qiladi. Ammo, ularni faqatgina darslikdan o'zlashtirib olish qiyin. Shuning uchun ham darsga tayyorgarlik jarayonida faqat darslik bilan chegaralanib qolmasdan, qo'shimcha manbalardan, masalan multimediali taqdimotlardan foydalanish yaxshi natija beradi.

Elektron taqdimotlar ma'lum mavzuda shaxsiy kompyuterda tayyorlangan bir nechta slaydlardan iborat bo'ladi. Uni namoyish qilish uchun kompyuter, agar imkoni bo'lsa proyektor kerak bo'ladi.

Taqdimotlar bir qancha afzalliklarga ega:

- o'quvchilarga darslikdan tashqari ko'proq axborotlar olish imkonini beradi;
- o'quvchilarga taqdim qilingan mavzuni to'liq tushunib olish sharoitini yaratadi;
- animatsiyalar, sur'at va videoyozuvlar o'quvchilarda fizik jarayonlarning qanday kechayotganligini ko'rgazmali tushunib olishga yordam beradi;
- o'quvchilarni darsga qiziqtiradi, fanni bosqichma-bosqich o'zlashtirib borishlarini ta'minlaydi;
- slaydlarni qayta-qayta takrorlash orqali o'tilgan mavzuni mustahkamlash mumkin.

Bundan tashqari elektron taqdimotlarni pedagog o'zi hohlagan holda qayta ishlashi, unga o'zgarish va qo'shimchalar kiritib borishi mumkin.

Davlat ta'lim standartlari va o'quv dasturlari asosida taqdimotlar to'plab, bir tizimga keltirdim. To'plangan taqdimotlar umumta'lim maktablarining 6-9 sinflarda dars va darsdan tashqari mashg'ulotlarni tashkillashtirishda elektron vosita sifatida xizmat qiladi.

Tayyorlangan taqdimotlar o'quvchilarning axborotlarni audial, visual, kinestet qabul qilishiga yo'naltirilgan bo'lib, elektron ko'rgazma vositasi hisoblanadi.

Mavzular kesimida tayyorlangan taqdimotlarning ayrimlariga qisqacha to'xtalib o'tmoqchiman.

6-sinflarda mavzular yuzasidan «Issiqlik uzatish», «Issiqlik uzatish turlari», «Tabiatda va turmushda issiqlik uzatish» mavzularida 15—20 slyaddan iborat multimedial taqdimotlar yaratilgan.

Bu darsni multimedia mahsulotlari yordamida tushunib, savol-javob va amaliy topshiriqlarni bajarish asnosida kichik loyihalarni yaratishga kirishish uchun imkoniyat beradi. Uch guruhga bo'lingan o'quvchilarga «Mening issiqqina uyim», «Mening issiqqina maktabim», «Mo'jazgina issiqxonam» loyihasini yaratish topshirig'i beriladi.

Loyihani yaratishda asosiy e'tiborni deraza oynalari, xonalarning devori, uying chordog'i va yerto'lasiga, tomyopma materiallariga qaratish tavsiya etildi. Loyihani yaratish uchun o'quvchilar faoliyat turini o'zlari tanlaydi: maket yasash, chizma chizish, taqdimotlar yaratish.

Vazifalar taqsimotini ham o'zlari belgilab oladi: ma'lumot izlash va to'plash, tah'lil qilish va keraklilarini ajratib olish, tadqiqot loyihasini muhokama qilish, loyihani yaratish uchun jihozlarni tanlash. Ish jarayonida har qanday savollar bilan o'qituvchiga murojaat qilishlari mumkin. Guruhlar taqdimoti barcha o'quvchilar ishtirokida tinglanib, muhokama qilinadi, baholanadi.

Taqdimotlarni yaratishda maqsadni ko'zlash(muammoli holatlarni hosil qilish), mustaqil ishlab chiqarish faoliyati(darsda asosiy boshlovchilik o'quvchiga beriladi), refleksiya (natija uchun mas'ullik o'quvchida) kabilar faoliyat turlari sifatida belgilab olingan. Ta'limga bevosita ta'sir ko'rsatadigan omillar — oila, maktab, do'stlar jamoasi, muammolar, kasbiy yo'nalishlar bilan ishlashga alohida e'tibor qaratilgan.

Bundan tashqari, ko'zlangan natijaga erishish uchun darslarda tadqiqotlar o'tkazish, mustaqil ravishda kichik loyihalar tuzish, ularni amalda sinab ko'rish kabi metodlarni tatbiq etib, bolalarni tadqiqotchilikka jalb etish, mavzuni keng va aniq tushunishi, fanga qiziqishini oshirish, tajribalarni tizimli, tartibli, rejali o'tkazish, maqsadni to'g'ri qo'ya olish malakalarini shakllantirish, o'z faoliyatini o'zi baholay olishni o'rgatishga erishiladi.

FOYDANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Mirzaxmedov B.M., G'ofurov N.B. Fizika o'qitish metodikasi kursidan o'quv eksperimenti.–T., O'qituvchi, 1989.
2. Azizxo'jayeva N.N. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat.–T., 2006.
3. A'zamov A., Yusupov A. O'quvchilarga bilim berishda innovatsion usullardan foydalanish.–T., 2006.
4. Yusupov A., Saidov T. Ta'limda innovatsion texnologiyalarni qo'llash.–T., 2006.
5. Qurbonov M., Begmatova D. Fizika praktikum ishlarini miqdoriy baholashning didaktik asoslari.–T., Universitet, 2008.
6. Qurbonov M. Fizikadan namoyish eksperimentlarining uslubiy funksiyalarini kengaytirishning nazariy asoslari.–T., Fan, 2008